


Farg'ona viloyatining CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar- aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3934,9 mlrd. so`mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,4 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 464,5 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 121,3%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 3122,6 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 2,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 347,7 mlrd. so`mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 %ga pasaygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**



2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Marg'ilon shaharlarida, shuningdek, Yozovon, Uchko'prik va Bag'dod tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o`rish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`ngan yilning mos davriga nisbatan 121,3 %ga o`tdi va 464,5 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,8 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 3122,6 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,9 %ga o`tdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,2 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



Kichik tadbirkorlik
 Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa t (99,8%), Sox' t (99,2%), Uchko'prik (98,7%) Furqat t (98,5 %) Beshariq t (98,4%) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko`rinib turibdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,8% ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg`na sh (26,5%), Qo`qon sh (15,6%), shaxarlari va Bag'dod tumani (18,6%) da kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	464,5	121,3	3122,6	102,9
<i>shaharlar</i>				
Farg'ona	276,3	1,4 m	704,3	94,5
Qo`qon	91,9	105,9	435,7	107,6
Quvasoy	2,2	45,4	77,1	103,6
Marg'ilon	18,1	63,3	256,3	112,9
<i>tumanlar</i>				
Oltiariq	4,6	101,0	121,1	104,7
Qo`shtepa	0,3	1,7 m	173,7	104,3
Bag`dod	26,0	3,6 m	106,1	101,5
Buvayda	2,6	115,0	125,8	104,8
Beshariq	2,3	102,2	134,4	109,4
Quva	11,2	71,4	167,4	102,9
Uchko`prik	1,9	116,3	131,6	105,8
Rishton	5,9	57,0	101,6	108,1
So`x	0,4	1,9 m	51,5	103,8
Toshloq	9,0	125,1	89,1	106,1
O`zbekiston	3,0	1,3 m	103,7	103,3
Farg'ona t	0,9	9,3	113,7	99,9
Dang`ara	2,6	113,3	74,2	102,1
Furqat	1,0	110,5	59,8	94,7
Yozyovon	3,4	95,9	94,6	106,4

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyati chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1077,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-aprel oyida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Farg'ona (3704,9 ming.so'm), Qo'qon (2380,2 ming. so'm) va Marg'ilon (1209,3 ming.so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston t (511,0 ming.so'm), Dang'ara t (533,7 ming.so'm) va Toshloq t (605,0 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	1077,6	102,7
<i>shaharlar</i>		
Farg'ona	3704,9	103,0
Qo`qon	2380,2	107,6
Quvasoy	981,3	99,9
Marg'ilon	1290,3	106,2
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq	674,9	102,0
Qo`shtepa	1019,1	101,1
Bag`dod	673,6	105,7
Buvayda	647,7	102,3
Beshariq	666,1	103,1
Quva	762,6	93,3
Uchko`prik	682,0	104,3
Rishton	638,6	100,4
So`x	779,1	100,6
Toshloq	605,0	114,3
O`zbekiston	511,0	100,5
Farg'ona t	679,7	98,5
Dang`ara	533,7	100,8
Furqat	630,4	98,3
Yozyovon	1062,8	104,4

Jumladan, 2019 yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,4 % ni tashkil etib, 53,5 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 97,3 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1154,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 11,3 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra 847,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,7 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 73,4 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon shahar (100,0%), Quvasoy shahar (100,0%), Qo'shtepa t (100,0%), Furqat t (100,0%), Beshariq t (100,0%) va Quva t (100,0%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




■ Yirik korxonadlar
■ Kichik korxonalar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 26,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati So'x (11,2%), Bog'dod (10,6%) tumanlari va Farg'ona (40,1%), Qo'qon (11,1%) shaharlida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	1154,5	111,3	216,3	132,8	847,2	103,7
shaharlar						
Farg'ona	694,8	91,6	200,8	124,8	416,4	73,3
Qo'qon	208,9	1,9 m	4,53	71,5	185,8	1,9 m
Quvasoy	5,1	2,9 m	0,00	-	5,1	2,9 m
Marg'ilon	75,9	1,9 m	0,03	26,1	75,9	1,9 m
tumanlar						
Oltiariq	31,9	2,6 m	0,07	82,3	31,8	2,7 m
Qo'shtepa	0,8	100,0	0,00	-	0,7	100,0
Bag'dod	35,7	81,6	3,7	49,6	32,0	102,1
Buvayda	5,5	1,7 m	0,00	-	5,4	1,6 m
Beshariq	0,3	2,5 m	0,00	-	0,3	2,5 m
Quva	4,6	2,7 m	0,00	-	4,5	3,0 m
Uchko'prik	15,2	2,9 m	0,4	3,5 m	14,8	3,0 m
Rishton	7,4	1,3 m	0,1	86,0	7,2	1,3 m
So'x	0,5	46,3	0,05	46,3	0,5	48,7
Toshloq	34,9	118,0	0,7	1,1 m	34,1	117,9
O'zbekiston	3,6	2,3 m	0,05	5,5 m	3,5	2,6 m
Farg'ona t	5,8	1,3 m	0,1	1,3 m	5,7	1,4 m
Dang'ara	12,3	100,3	0,1	61,8	12,2	104,2
Furqat	0,8	1,8 m	0,00	-	0,8	1,8 m
Yozyovon	10,4	3,3 m	0,1	90,8	10,2	3,5 m

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`ati Farg'ona shahar(91,6%) va Bog'dod t (81,6%), So'x t (46,3%) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi

Tel.:71-230-87-18